

Gumon Qilinuvchi Va Ayblanuvchini Himoya Huquqi Bilan Ta'minlash

*Askarov Aziz Akmalovich*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va himoyachi tushunchasiga ta'rif berilib, gumon qilinuvchini maqomi, huquq va majburiyatlari, himoya huquqi bilan ta'minlashning protsessual tartibi, asoslari, hamda gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashning amaliyotda qo'llanilishi.

Kalit so'zlar: Surishtiruv va dastlabki tergovda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoya huquqi, advokat.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning bosh maqsadi – inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yaratishga qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuritayotgan siyosat markazida inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi muajassam. Davlatimiz rahbarining “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” kitobida ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir”.² So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlashga, shuningdek, inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, qonuniy manfaatlarini cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hamda “O'zbekiston - 2030” strategiyasida advokatura institutining qonunchilik bazasini mustahkamlash, advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish asosiy maqsadlardan biri etib belgilandi.³

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran, o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligi keltirib o'tildi. Bularning barchasi gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyalanih huquqi kafolatlanishini anglatadi.”⁴

Jinoyat protsessual qonunchiligida protsess ishtirokchilari hisoblangan gumon qilinuvchi, ya'ni jinoyat sodir etgani to'g'risida ma'lumotlar bor bo'lsa-da, bu ma'lumotlar uni ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lmagan shaxs hisoblanadi. Shaxsni gumon qilinuvchi sifatida e'tirof etish surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorni qarori asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, jinoyat sodir qilganligi gumon qilinib ushlangan shaxs ham gumon qilinuvchi deb e'tirof etiladi. JPKning 48-moddasida gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari berilgan bo'lib, o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish; u amalda ushlangan yoki jinoyat joyida ushlangan bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlangan yoxud uning gumon

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti “Advokatlik faoliyati” yo'nalishi magistratura talabasi

² Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022. -416 b

³ 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. Toshkent: O'zbekiston, 2023. -120b.



qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan holi uchrashish; ushbu o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ega.

Shaxs gumon qilinuvchi deb tan olinishi protsessual hujjat sifatidagi ushlab turish bayonnomasi (JPK 225-m.), shuningdek, ushlab turish qaroriga binoan ham amalga oshirilishi mumkin (JPK 224-m) yoki gumon qilinuvchi sifatida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarori asos bo'la oladi. Jinoyat-protsessual kodeksning 224-moddasiga ko'ra Ichki ishlar xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turishning JPKning 221-moddasida ko'rsatilgan asoslaridan bittasi mavjudligini bevosita aniqlasa yoki boshqa shohidlarning so'zlaridan aniqlasa: o'zini tanishtirishi va ushlab turilgan shaxsning talabiga ko'ra o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi; gumon qilinuvchiga u jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlanganligini ma'lum qilishi; ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo'lish; ko'rsatuvlar berishni rad etishga bo'lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi; ushlab turilgan shaxsga u bergan ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi; ushlab turilgan shaxsdan yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birga borishini talab qilishi shart.

Ayblanuvchi deganda esa JPKda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs tushuniladi. Shaxsni ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorni surishtiruvchi va tergovchi chiqaradi.

Jinoyat protsessida himoya huquqini ta'minlash avvalo umuminsoniy qadriyatlarga borib taqaladi. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da shaxs huquqlarini himoya qilish jumladan jinoyat ishlarini yuritishda ham himoya huquqini ta'minlashga oid bir qancha normalar belgilangan. Jumladan mazkur deklaratsiyaning 8-moddasida "Har bir inson moboda uning konstitutsion yoki qonun berib qo'ygan asosiy huquqlari buzilgudek bo'lsa, nufuzli milliy sudlar tomonidan o'z huquqlarini samarali tarzda tiklanishi huquqiga egadir" deb belgilangan.⁵

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarda himoyalani huquqining nafaqat mavjudligini e'lon qiladi, balki mazkur huquq ta'minlanganligiga xizmat qiladi. Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyalani huquqi quyidagi qoidalardan iborat ekanligi keltirib o'tilgan. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi o'z huquqlarini shaxsan hamda o'z vakolatlaridan to'liq foydalanadigan himoyachi yordamida amalga oshirishlari.

Gumon qilinuvchiga va ayblanuvchiga taqdim etiladigan hamda o'zining nimada ayblanayotganligini bilishga, o'z tushuntirishlarini berishga, unga qo'yilgan ayblovga nisbatan e'tiroz bildirishga, o'z qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish bo'yicha barcha huquqlardan foydalanishga imkon beruvchi protsessual vosita va huquqlar majmuasi jinoyat protsessida himoyalani huquqi institutining asosini tashkil etadi⁶.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyalani huquqi deganda, unga qo'yilgan ayblovdan shaxsan yoki himoyachining yordamida himoyalani imkoniyatini beruvchi protsessual huquqlarning butun majmui, butun kompleksi tushunilishi lozim.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi bo'yicha himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 49-moddasiga muvofiq, himoyachi - gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning

⁵ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

⁶ Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To'laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU, 2016. – 468 bet.



huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir.⁷

Shaxsni ayblanuvchi tariqasida jalb qilish paytida himoyachini ishtiroki muhim huquqiy ahamiyatga ega. Shunga asosan himoyachi ayblanuvchiga qo'yilgan ayb va ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlarni o'rganadi va bu savollardan to'g'ri o'rganish himoyani qonunga asosan samarador tashkil etish uchun ish bo'yicha yig'ilgan barcha dalillarni tekshirish kerak va himoyani amalga oshirishga doir barcha protsessual harakatlarni o'tkazilishini voqelikka to'g'ri qonuniy va adolatli bo'lishida tergovchi prokuror va sudni ishontirish kerak.

Ayblanuvchining himoyalani huquqi mazkur shaxsga himoyachi tomonidan jinoyat protsessida mavjud bo'lgan dalillarning tushunchasi, ta'rifi va ahamiyatini tushuntirishi hamda uning bu bilimlarini ish bo'yicha haqiqatni aniqlashda ishlatishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'pincha amaliyotda gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni himoyachi bilan ta'minlashda quyidagi asosiy kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda:

1. Himoyachilar soni va malakasining yetarli emasligi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan advokatlar soni o'rganilganda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra bergan hisobotida respublikamizda faoliyat ko'rastayotgan jami advokatlar soni 5219 nafar bo'lib shulardan 917 nafari ayollar bo'lsa 4302 nafari erkak advokatlar ekanligi aniqlandi. Respublikamiz aholi sonini 37 mln kishi deb olganimizda ham 7089 nafar aholiga bir nafar advokat to'g'ri kelmoqda. Bu himoyachilar sonining kam ekanligini ko'rsatmoqda yana shuni aytib o'tish joizki, advokatlar soni viloyatlar va shahar markazlarida ko'p bo'lib ayrim chekka hududlarda advokatlarning yetishmasligi yoki ularni yetarli malakaga ega emasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.⁸
2. Moliyaviy ta'minotning yetarli emasligi. Ko'plab gumon qillinuvchi va ayblanuvchilarning moliyaviy imkoniyatlari yetarli darajada yaxshi bo'lmaganligi sababli, mustaqil ravishda himoyachi ya'ni advokat yollash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. To'g'ri bu o'rinda agar gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning advokat yollashga imkoniyati bo'lmagan taqdirda davlat hisobidan himoyachi tayinlanadiku deb aytishimiz mumkin, ammo davlat hisobidan tayinlanadigan himoyachilarga to'lanadigan mablag' yetarli bo'lmaganligi sababli ham davlat hisobidan tayinlanadigan advokatlarning ba'zilar kerakli tajribaga ega bo'lmagan yosh advokatlar bo'ladi yoki malakali advokat bo'lganda ham to'lanadigan mablag' oz miqdorda bo'lgani uchun ham o'zining himoyachi sifatidagi vazifalarini to'liq bajarmaydi shuning uchun ham himoya huquqi faqatgina hujjatda ta'minlanyapti xolos.
3. Jamiyatda advokatlik institutiga bo'lgan ishonchning pastligi. Ba'zi holatlarda shuni uchratish mumkinki gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar o'zlarini advokat yordamida himoya qila olishlariga shubha bilan qaraydilar. Bu esa advokatlarga nisbatan bo'lgan ishonchning past ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, himoyachilar soni va malakasini oshirish uchun davlat tomonidan yangi kadrlar tayyorlash va mavjud advokatlarning malakasini oshirish uchun samarali dasturlarini ishlab chiqish va uni joriy etish lozim. Davlat hisobidan tayinlanadigan himoyachilar faoliyatining samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan to'lanadigan mablag'lar miqdorini oshirish va himoyachilarga qo'shimcha rag'batlantirish choralari ko'rish zarur, bu esa mustaqil advokat yollash imkoniyatiga ega bo'lmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning himoyalani huquqi to'liq ta'minlanishiga yordam beradi.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi 1995 y.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra advokatlik tuzilmalari va advokatlar haqidagi ma'lumoti.



Advokatura institutining nufuzini va fuqarolarda advokatlarga bo'lgan ishonchni oshirish uchun ommaviy axborot vositalarida ularning faoliyati va huquqiy yordamining foydali tomonlari haqidagi targ'ibot ishlarini amalga oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022. -416 b
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Rasmiy nashr. Toshkent: O'zbekiston, 2023. –120b.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi 1995 y.
5. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To'laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU , 2016. – 468 bet.
6. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.

